1-SENTABR – MUSTAQILLIK KUNI

Farg‘onaazot
aksiyadorlik jamiyati

Gazeta 1979-yil yanvar oyidan chiqa boshlagan.

# Kimyogar

8-son (1720)
2023-yil,
31-AVGUST.

Ijtimoiy-iqtisodiy gazeta

fargonaazot_uz | fargonaazot.uz | info@azot.uz
www.azot.uz | AO Farg'onaazot | t.me/fargona_azot

Tabrik

## ASSALOMU ALAYKUM HURMATLI ISHCHI-XODIMLAR, MUHTARAM VATANDOSHLAR!

Ushbu shukuhli onda barchangizni O‘zbekistonimiz mustaqilligining 32 yilligi munosabati bilan chin qalbdan muborakbod etaman. Shu o‘rinda, Mustaqillikdek bebaho ne’matni qadrlashimiz, asrab-avaylay bilishimiz lozim ekanligini aytib o‘tmoqchiman. Biz bugungi O‘zbekiston farzandlari bunday baxtli hayotda yashab kelayotganligimizdan bag‘oyat shodmiz, albatta.

Aytib o‘tish lozimki, mustaqillik yillarida ona Vatanimiz sezilarli darajada muvaffaqiyatlarga erishdi. O‘zbekiston nomini dunyo tanidi. Ayniqsa so‘nggi davrlarda mamlakatimizda amalga oshirilgan islohotlar, aholini yashash tarzi, inson qadri yuksalganligi, yangidan yangi turar joylar qurilib, xotin-qizlar, yosh avlodga qulay sharoitlar yaratilib kelindi. Konstitutsiyamizga o‘zgartishlar kiritildi, uning har bir bandida xalq manfaati ko‘zlanib, qonun bilan muhrlab qo‘yildi. Shu bilan birgalikda jamitimizni davlatga bo‘lgan ishonchi yanada mustahkamlandi. Bu yurtimizni erishgan katta yutug‘i demakdir.

**AZIZLAR!**

O‘zingizga ma’lumki, diyorimizda amalga oshirilgan ishlar bizning sanoat sohasiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Chet eldan jalb qilingan investorlar korxona va sanoat zonalariga yangi zamonaviy texnologiyalar, yangi qarashlar olib kirishmoqda. Uning ortidan mahsulotlarimiz sifati, turlari ortib bormoqda. O‘zbekiston mahsulotlari jahon bozorlari rastalarini bezab kelmoqda. Bularning barchasiga Davlatimiz rahbarining dono siyosatlari hamda xalqimizning halol mehnatlari ila erishganligimizni ta’kidlab o‘tmoqchiman.

**HURMATLI HAMYURTLAR!**

Yana bir bor mustaqilligimiz, xurligimizning 32 yilligi bilan barchangizni tabriklayman. Barchangizga sihat-salomatlik, oilaviy xotirjamlik, ulkan yutuqlar va barqarorlik tilab qolaman. Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo, jonajon O‘zbekistonimiz omon bo‘lsin!

**Dilshod MANNONOV,**
**“Farg‘onaazot” AJ boshqaruvi raisi.**



## MUSTAQILLIGIMIZNING 32 YILLIGIGA BAG‘ISHLANGAN TANTANALI BAYRAM KECHASI

**Vatanimiz mustaqil davlat bo‘lganiga ham roppa-rossa 32 yil to‘ldi. Mazkur muhim va qadrli sanani tantanali ravishda barcha O‘zbekiston ahli, butun xalqimiz nishonlamoqda. Indorama Farg‘onaazot korxonasi esa bu bayramni shahrimizdagi “Sarbon” tantanalar uyida nishonladi.**

Bayramni jamiyat boshqaruvi raisi Dilshod Mannonov, bosh moliyaviy direktor Jain Shaliesh hamda bosh elektrik va asbobsoz Vivek Aroralar o‘zlarining tabrik so‘zlari bilan ochib berdilar. Dilshod Erkinovich o‘z nutqida ona yurtimiz yildan-yilga gurkirib borayotganligini, yangidan-yangi islohotlar amalga oshirilayotganligi va aholi uchun Yangi O‘zbekistonda barcha sharoitlar yaratilib, inson qadri yuksalib borayotganlinigi ta’kidlab o‘tdi. Shu o‘rinda, yurtboshimizning dono siyosati tufayli sanoatimiz yanada rivolanib borayotganligini aytib o‘tdi. Jain Shaliesh va Vivek Arora jamiyat xodimlari va butun O‘zbekiston ahlini mazkur muhim sana bilan muborakbod etishdi. Ularga sog‘lik-salomatlik, oilaviy xotirjamlik va albatta Vatanimiz farovonligini tilab qoldilar.

Tadbirda yil davomida o‘zining fidokorona mehnati bilan hamkasblariga o‘rnak bo‘lgan, uzoq yillar davomida korxona ravnaqiga o‘z hissasini qo‘shib kelayotgan 15 dan ziyod xodimlar jamiyat ma’muriyati tomonidan qimmatbaho sovg‘alar va tashakkurnomalar bilan taqdirlandilar.

Kechada respublikamiz va viloyatimizning taniqli hushovoz honandalari o‘zlarining sara qo‘shiqlari bilan xodimlar xizmatida bo‘ldilar. Mehmonlar uchun yozilgan bayram dasturxoni ustida ishchi-xodimlar o‘yin-kulgu qilishib, mustaqilligimiz, xurligimiz kunini nishonladilar.

**E‘zozxon ABDULLAYEVA.**

# “YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O‘ZBEKISTON UCHUN” NOMLI QO‘SHIQLAR TANLOVI VA TAQDIRLASH KECHASI

**Mustaqillik bu – oliy ne’mat. Uni qadrlash, takror va takror tilga olish esa ulkan baxt. Bugungi O‘zbekiston farzandlari Vatan tuyg‘usini kuy-qo‘shiqlarga solib ko‘ylashdek baxtga ega ekan uni madh etishdan charchamaydilar.**

Qudratli Davlatimiz mustaqilligining 32 yilligi arafasida mamlakatimizning barcha joylarida bayram shukuhi barq urib turibdi. Shu o‘rinda, “Farg‘onaazot” aksiyadorlik jamiyatida ham bayramga bag‘ishlangan tadbirlar birin-ketin o‘tkazildi.

Korxonaning majlislar zalida “Yangi hayot uchun, yangi O‘zbekiston uchun” shiori ostida jamiyatning tarkibiy bo‘linmalari xodimlari o‘rtasida qo‘shiqlar ko‘rik-tanlovi tashkil etildi. Tanlovni boshqaruv raisi Dilshod Mannonov o‘zining nutqi bilan ochib berdi. Barcha hamyurtlarimizga sihat-salomatlik, yangi-yangi yutuqlar, oilaviy xotirjamlik, yurtimizga tinchlik, omonlik tiladi. Shuningdek, Indorama kompaniyasi nomidan Mr. Shaliesh Deokumar Jain butun O‘zbekiston xalqini tabriklab o‘tdi.

Ko‘rik-tanlovga vokal sohasida ustalari, O‘zbekiston Davlat filarmoniyasi Farg‘ona viloyati hududiy bo‘linmasining xodimlari Umidjon Azimov, Murodjon Ibrohimov, Abubukir Bosafaqulovlar jalb etildi. Hakamlar ishtirokchilarni professional va havaskor qo‘shiq yo‘nalishida baholab bordilar.

Tanlov natijalariga ko‘ra, havaskor yo‘nalishi bo‘yicha 1- o‘rinni Xo‘jalik sexi xodimalari Risolat Abdusattorova va Nodira Teshaboyevalar, 2- o‘rinni XMD sexi xodimasi Ozoda Kenjayeva hamda 3- o‘rinni Tashqi suv ta’minoti sexi xodimasi Feruza Nomonjonovalar, professional yo‘nalishida 1-o‘rinni Qutqaruv otryadi xodimi Mirzohid Ahmedov, 2- o‘rinni Suv bug‘ ta’minoti sexi xodimi Mirzohid Sodiqov va 3-o‘rinni DSDS xodimasi Sohiba Ibragimovalar egalladilar. G‘oliblar diplomlar va qimmatbaho sovrinlar bilan taqdirlandilar. Shu o‘rinda, faol ishtirokchilarga kitoblar jamlanmasi hadiya etildi.

Tanlov so‘ngida Davlatimiz mustaqilligiga bag‘ishlab “Eng ulug‘, eng aziz!” shiori ostida ishchi-xodimlar o‘rtasida o‘tkazilgan insholar tanlovi g‘oliblari, ya’ni, 1-o‘rin, 2-o‘rin va 3-o‘rinni egallariga diplomlar va qimmatbaho sovg‘alar taqdim etildi.



# YANGI O‘ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLARNI O‘RNINI YANADA MUSTAHKAMLASHGA DOIR TADBIRLAR

**“Yangi hayot uchun, Yangi O‘zbekiston uchun!” – bosh g‘oyasini o‘zida mujassam etgan shior ostida “Farg‘onaazot” aksiyadorlik jamiyatining xotin-qizlari ishtirokida O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz ikki yilligiga bag‘ishlangan tadbirlar o‘tkazildi.**

Mustaqillik bayramini ko‘tarinki ruhida o‘tkazish, unda ayollarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida o‘tkazilgan ma’naviy-ma’rifiy, intellektual tadbirlarda korxonamizning barcha sex va boshqarmalari xodimalari qatnashdilar. Mazkur tadbirlar doirasida “Farg‘onaazot” AJning majlislar zalida “Biz zo‘ravonlikka qarshimiz” mavzusida seminar-trening va “Zakovat” intellektual o‘yini bo‘lib o‘tdi.

Seminar-treningga Farg‘ona viloyat Xotin-qizlar reabilitatsiyasi va moslashuv markazi bo‘lim boshlig‘i Jamila Ahmedova, Yoshlar ishlari agentligi Farg‘ona viloyati boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i Husniya Akramova, tajribali psixolog Muharramoy Uzoqova hamda “Respublikada faol kelajak bunyodkori” ko‘krak nishoni sohibasi Zarnigor Ubaydullayevalar tashrif buyurdilar. Seminarda so‘zga chiqqan mehmonlar korxona xotin-qizlariga huquqiy madaniyatni oshirish, oiladagi zo‘ravonlik qurbonlari himoyasini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar, hayotda og‘ir vaziyatga tushib qolgan ayollarni qo‘llab-quvvatlash borasida so‘zlab berdilar. Seminar davomida tinglangan ma’ruzalar, o‘tkazilgan psixologik treninglar va namoyish etilgan motivatsion videoroliklar ishtirokchilarda unutilmas taassurot qoldirdi.

Tadbirning ikkinchi qismida “Zakovat” intellektual o‘yini o‘tkazilib, unda 14 ta jamoa ishtirok etdi. Qiziqarli kechgan o‘yinda 1-o‘ringa “Chinor ostidagi duel”,

2-o‘ringa “Mahallada duv-duv gap”, 3-o‘ringa “Qaynonalar” va 4-o‘ringa esa “Suyunchi” jamoalari sazovor bo‘ldilar. G‘oliblar esdalik sovg‘alar bilan taqdirlandi.






# KASB-HUNAR FAZILATI,
## YOXUD BOQIMANDALIK ILLAT

**Barchamizga ma’lumki, Alloh taolo insonni yaratgan ekan yer yuzidagi barcha narsa inson manfaati uchun xizmat qilishi va bu Allohning Odam farzandlarini azizu mukarram qilganligini isboti sifatida qarashligimiz mumkin. Inson saodatli va farovon hayot kechirishi uchun biror kasb yoki hunarni egallashi va buni ortidan boqimandalik, dangasalik, vaqtni zoe ketkazib xalqimiz orasida keng tarqalgan maqollardan biri “Olma pish og‘zimga tush” deb o‘tirishligi bu illat hisoblanadi.**

Dangasalik, tanballik, boqimandalik, boqibeg‘amlik va beparvolik kabi salbiy illatlar jamiyatni tubanlashtiradigan omillardandir. Muhtaram yurtboshimiz boshchiligida xalqimizni faravon hayot kechirish uchun ko‘plab islohatlar,sharoitlar va qulayliklar yaratilmoqda. Albatta bu Yangi O‘zbekiston rivoji va xalqi uchun. Shuningdek, kambag‘allikni qisqartirish odamlar orasida “Boqimandalik” ruhidagilarni safini qisqartirish, bora bora bu illatni yo‘q qilish nazarda tutilgan.

Dinimiz Islomda ham bu haqida ko‘plab ko‘rsatmalar mavjud. Jumladan, Qur’oni karimda: “Er yuzida tarqalib, Alloh fazli (rizqi)dan istayveringizlar!”.

(Jum’a surasi, 10-oyat) deyilgan.

Rasululloh solallohu alayhi va sallam o‘zi sog‘lom bo‘la turib, ishlamaydigan kishi Alloh taolo yomon ko‘rishini quyidagicha bayon qildilar:

“Albatta Alloh taolo sog‘lom bo‘la turib, ishlamaydigan kishini yomon ko‘radi”.

Alloh taolo har bir bandasini rizqini beruvchi Razzoq zotdir. Bandalardan talab qilingan narsa anashu rizq uchun mehnat orqali biror kasbni egallab harakat qilishi lozimdir. Agar inson halollikni lozim tutib boqimandalik, dangasalikdan yiroqda bo‘lgan holda biror mehnat qilsa u uchun bashorat bor:

Hadisi quddusiyda (Alloh taolo) Ey bandam, qo‘lingni qimirlatgil, senga rizq nozil qilurman”, deb marhamat qilingan.

Islom tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak Allohning payg‘ambarlari, rosullari, nabiylari ham kasb qilganliklarini guvohi bo‘lamiz. Islom tarixidan ma’lumki Allohning payg‘ambar va mursallari ham biror bir kasb bilan mashul bo‘lganlar. Jumladan, Odam alayhissalom yerga bug‘doy ekib, sug‘orib va o‘rib olib, un qilib, non qilganlar. Nuh alayhissalom savdogarlik qilganlar. Ibrohim alayhissalom bazzoz (gazmol sotuvchi) bo‘lganlar. Dovud alayhissalom sovut yasar edilar. Sulaymon alayhissalom zanbil to‘qir edilar. Idris alayhissalom kiyim tikar edilar. Zakariyo alayhissalom duradgor edilar. Bundan tashqari barcha payg‘ambarlar qo‘y boqqanlar.

Islom tarixida saodat asri deb atalgan vaqtlar, ya’ni Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom ham va u kishining sahobai kiromlari ham ma’lum bir kasblarga mashg‘ul bo‘lganlar. Jumladan, Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhu bazzoz (gazmol sotuvchi) edilar. Umar rozyallohu taolo anhu terini oshlar edilar. Usmona Abdurahmon ibn Avf roziyallohu anhumolar savdogar edilar. Ali roziyallohu anhu kotiblik va mardikorlik qilar edilar.

Bizchi, biz? Farovon bir yurtda yashayapmiz, qani bizdagi oriyat? Nega shukr qilish, biror kasb egallash o‘rniga hadeb noliyveramiz? Yurtimiz mustaqqillikni qo‘lga kiritilgandan so‘ng qiyinchiliklar bo‘lib, do‘konlar bo‘shab qolgan, non uchun turnaqator navbatlar bo‘lgan paytlarda ham xalqimiz shukronalik bilan bu kunlarni boshidan o‘tkazdi. Inson Alloh tarafdan berilgan ne’matlarni qadriga etishi uchun uni yo‘qotishi kerakmi? Yoki ne’mat bandaning ustida qoim bo‘lib turgan vaqtda qadrlab yashash kerakmi?

Anas roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi:

“Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Sa’d ibn Mu’oz roziyallohu anhuning qo‘li qavarib ketganini ko‘rib:

— “Nimadan bunchalik qavarib ketdi?” dedilar.

— Yerimdagi oq toshlarni cho‘qmor bilan urganimdan”, dedi.

— “Ey Sa’d! Guvohlik beramanki, albatta, bu qo‘llarga hech qachon do‘zax o‘ti tegmaydi”, dedilar.

Axir imkoniyati cheklangan nogironlar ham tadbirkorlik qilib oilasini boqayotgan bir zamonda to‘rt muchamiz sog‘ bo‘lib, kimlardandir qachongacha yordam kutib boqimanda bo‘lamiz. Boqimandalik uyat emasmi?

Hasandan rivoyat qilinadi:

Luqmon o‘g‘liga dedi: “Ey o‘g‘lim, dunyodan oxiratingga zarar etkazmaydiganini ol. Undan bir yo‘la bosh tortib, odamlarga boqimanda bo‘lib qolma. Lekin dunyodan yetarlisini ol”.

Aholi manfaatiga yo‘naltirilgan har qanday amallar davlatimiz rahbari va hukumatimizning uzoqni ko‘zlab tuzgan rejasi bilan bog‘liq. Bugungi e’tibor ertaga meva berishi uchun undan unumli foydalanishga burchlimiz. Birni ikki qiladigan, ikkini elga tatitadigan ham o‘zimiz. Shunday ekan, ko‘rsatilayotgan g‘amxo‘rlikni suiiste’mol qilishga haqqimiz yo‘q.

**Lazizbek SUYARKULOV,
Farg‘ona shahar “Toyyiba” masjidi imom noibi.**

# JAHOLATGA QARSHI MA’RIFAT

**Mazkur shior ostida “Farg‘onaazot” aksiyadorlik jamiyatida Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning Farg‘ona viloyati hududiy boshqarmasi ishtirokida yig‘ilish bo‘lib o‘tdi.**

Yig‘ilishni boshqaruv raisining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi E’zozxon Abdullayeva ochib berdi va jaholatga, xurofotga qarshi faqat ma’rifat yo‘li bilan kurashish mumkinligini, O‘zbekistonimizni, yoshlarimizni va xalqimizni yovning daxshatli hamlasidan, noto‘g‘ri mavkurasidan asrashimiz bizning ham diniy ham fuqarolik burchimiz ekanligini ta’kidlab o‘tdi.

Jaholatga qarshi mamlakatimizda olib borilayotgan siyosat, yosh avlodni uning hujumidan asrash hamda yurtimizdagi tinchlik, uni tashqi yovlardan, ularning buzg‘unchi g‘oyalaridan saqlash to‘g‘risida Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning Farg‘ona viloyati hududiy boshqarmasi bosh mutaxassisi Ilhomjon Mirzaaxmedov so‘zlab berdi.

Yurtimizdagi diniy erkinlik, uni to‘g‘ri tasnifi, Islom dini bag‘rikenglik va o‘zaro mehr-oqibat timsoli ekanligi borasida esa Musulmonlar idorasi vakili Baxromjon Tursunov, oilada farzand tarbiyasi, jamiyatimizda yuz berayotgan jinoyatlar sabablari va ayollarning oiladagi o‘rni to‘g‘risida Dilorom G‘ofurovalar ma’ruza qildilar.

Yig‘ilish so‘nggida diniy ekstremizm va terrorizmni, Vatanimiz tinchligini aks etgan ta’sirli videorolik namoyish etildi.

# BARCHA KORXONAMIZ ISHCHI-XODIMLARI DIQQATIGA!

**Jamiyatimizda 2023-yilning oktabr oyida “Kitobxon xodim” ko‘rik-tanlovi o‘tkazilishini e’lon qilamiz!**

Tanlov 3 bosqichda, ya’ni, “O‘zbek adabiyoti bilimdoni” , “Jahon adabiyoti bilimdoni” va “Men sevib o‘qigan asar” bosqichlarida o‘tkaziladi. Yosh chegaralanmagan. Xodimlar millati, lavozimi va jinsidan qat’iy nazar ishtirok etishlari mumkin. Tanlov o‘zbek tilida o‘tkaziladi.

“O‘zbek tili bayrami kuni” arafasida o‘tkaziladigan tanlovda g‘oliblar quyidagi tartibda taqdirlanadi:

**1-o‘rin — 8 million so‘m va kitoblar to‘plami;**

**2-o‘rin — 5 million so‘m va kitoblar to‘plami;**

**3-o‘rin — 3 million so‘m va kitoblar to‘plami bilan.**

“Kitobxon xodim” ko‘rik-tanlovida ishtirok etish istagidagi xodimlar o‘z ma’lumotlarini korxona boshqaruvi raisi maslahatchisi E.M. Abdullayevaga taqdim etishlari so‘raladi.

Eslatib o‘tamiz, mazkur ko‘rik-tanlov buyrug‘i, nizomi jamiyatimizning barcha sex va boshqarmalariga tarqatib berilgan!

**“KITOBXON XODIM - 2023” TANLOVIDA ISHTIROK ETISH UCHUN O‘QISH LOZIM BO‘LGAN KITOBLAR RO‘YXATI**

| | |
|---|---|
| **1.** | **“Kuntug‘mish” - Xalq dostoni** |
| **2.** | **“Jaloliddin Manguberdi” - Maqsud Shayxzoda** |
| **3.** | **“Oltin zanglamas” - Shuhrat** |
| **4.** | **“Falak” qissasi - Tohir Malik** |
| **5.** | **“Mungli ko‘zlar” - Xudoyberdi To‘xtaboyev** |
| **6.** | **“Ulug‘bek xazinasi” - Odil Yoqubov** |
| **7.** | **“Qil ko‘prik” - Shukur Xolmirzayev** |
| **8.** | **“Ot kishnagan oqshom” - Tog‘ay Murod** |
| **9.** | **“Ona lochin vidosi” - Pirimqul Qodirov** |
| **10.** | **“Qo‘rqma” - Javlon Jovliyev** |
| **11.** | **“Turkiy guliston yohud axloq” - Abdulla Avloniy** |
| **12.** | **“Temur Malik” - Mirmuhsin** |
| **13.** | **“Bozor” - Xurshid Do‘stmuhammad** |
| **14.** | **“Jannatga yo‘l” - Abdulla Oripov** |
| **15.** | **“Ityurak” qissasi - Mixayl Bulgakov** |
| **16.** | **“Oq so‘yloq” - Jek london** |
| **17.** | **“Farg‘ona kelini” - Jorjoy Zaydon** |
| **18.** | **“Amerika fojiasi” - Teador Drayzer** |
| **19.** | **“Kafansiz ko‘milganlar” - Shukrullo** |
| **20.** | **“Amur Temur” - Marsel Brion** |

**Qo‘shimcha murojaatlar uchun quyidagi telefon raqamlariga qo‘ng‘iroq qilishingiz mumkin: 67-40, (90) 303-17-71.**

# O‘ZBEKISTON QONUNCHILIGIDA 1-SENTABRDAN NIMALAR O‘ZGARADI?

**O‘zbekiston qonunchiligida 2023-yil 1-sentabrdan bir qator o‘zgarish va yangiliklar kuchga kiradi. “Norma” mamlakatda 1-sentabrdan kuchga kiradigan milliy qonunchilikdagi asosiy o‘zgarishlar sharhini taqdim etdi.**

1. Paxta sanoatida AKT joriy etiladi. Hududlar va klasterlar kesimida paxta xom ashyosini yig‘ib olish bilan bog‘liq ma’lumotlar shakllantiriladigan axborot tizimi ishga tushiriladi, 2023-yil 15-sentabrdan boshlab esa u “Agroplatforma” axborot tizimiga integratsiya qilinadi.

**2. “Yong‘indan ogohlik” umummilliy kampaniyasi amalga oshiriladi. Uning doirasida:**

- ta’lim tashkilotlarida yong‘inlarning oldini olish va yong‘in sodir bo‘lgan vaziyatda harakat qilish bo‘yicha batafsil uslubiy mashg‘ulotlar o‘tkaziladi;
- davlat tashkilotlari, tadbirkorlik sub’ektlari va boshqa tashkilotlarda ish joylarida yong‘in xavfsizligi bo‘yicha o‘qitish tashkil etiladi, jumladan, evakuatsiya rejalari o‘t o‘chirish vositalaridan foydalanish qoidalari bilan tanishtiriladi;
- aholi tarqatma materiallar bilan ta’minlanadi.

OAVda ushbu yo‘nalishdagi maqola, intervyu va ko‘rsatuvlar namoyish etiladi.

3. Davlat organlari to‘liq elektron ish yurituviga o‘tishadi. “Raqamli hukumat” tizimi doirasida ijro etuvchi hokimiyatning markaziy apparatlari to‘liq elektron hujjat aylanish tizimiga o‘tkaziladi.

4. Yuridik oliygoh talabalariga ishlashga ruxsat beriladi. Oliy ta’lim muassasalarining bitiruvchi talaba-yuristlariga o‘qishdan bo‘sh vaqtda advokat yordamchisi sifatida faoliyat yuritishga ruxsat beriladi.

5. Bolalar uchun muzeylarga kirish bepul bo‘ladi. 18 yoshgacha bo‘lgan bolalarning madaniy meros obyektlariga, jumladan, ko‘rgazmalar, tarixiy obidalar va ziyoratgohlar, shuningdek, davlat muzeylariga to‘lovsiz kirish tartibi joriy etilmoqda.

6. Davlat ishtirokidagi korxonalar depozit uchun banklarni auksion orqali tanlashadi. Davlat ishtirokidagi korxonalarning bo‘sh pul mablag‘larini depozitga joylashtirish bo‘yicha tijorat banklari o‘rtasida foiz oshib borish tarzida bank kapitali yetarliligi, bank kapitalining uning majburiyatlariga nisbati, likvidlilik koeffitsienti kabi shartlarni nazarda tutgan holda auksion savdolari o‘tkaziladi.

7. Ta’lim tizimi islohoti. Tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limlarining umumiy o‘rta ta’lim muassasalari faoliyatini tekshirish va ta’lim sifatini baholash bo‘yicha vakolatlari bekor qilinadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida eng tajribali direktorlardan iborat bo‘lgan Direktorlar kengashlari tuziladi.

**2023/2024-o‘quv yilidan boshlab:**

- maktablarning 1-4-sinf o‘quvchilariga boshlang‘ich, 5-9-sinflarida tayanch hamda 10-11-sinf o‘quvchilarining qiziqish va qobiliyatiga mos bo‘lgan bilimlarni berishga yo‘naltirilgan o‘quv dasturlari joriy etiladi;
- boshlang‘ich sinflarda informatika fani, o‘rta sinflarda esa o‘quvchilarning moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan darslar joriy etiladi;
- barcha fanlar bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar ulushi 60%ga yetkaziladi. Bunda, darslardagi mavzular aniq muammoni hal qilish orqali o‘rgatiladi, amaliyot darslari esa loyihani bajarish shaklida o‘tkaziladi.

8. Budjet tashkilotlari quyosh batareyalari o‘rnatishga majbur bo‘lishadi. Budjet tashkilotlariga quyosh paneli va issiq suv kollektorini o‘rnatish majburiyati yuklatiladi hamda 2026-yilga qadar ularning binolari energiya iste’molining 60 foizi “yashil energiya”ga bosqichma-bosqich o‘tkaziladi.

9. Haydovchilik guvohnomalari almashtirishning so‘nggi muddati kelmoqda. Xususan haydovchilik guvohnomalari hamda avtomototransport vositasi ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnomalar:

- 2013–2015- yillarda berilgan bo‘lsa – 2023-yil 30-sentabrgacha;
- 2015-yildan keyin berilgan bo‘lsa – 2023-yil 31-dekabrgacha almashtirilishi zarur.

10. Turistik sohada talablar soddalashtirilmoqda. Quyidagi talablar bekor qilinadi:

- turagentlarning elektron to‘lovlar, bron qilish xizmatlarini ko‘rsatadigan kamida ikkita xorijiy tildagi veb-saytga ega bo‘lishi;
- turoperatorlarning elektron to‘lovlar xizmatlarini ko‘rsatadigan veb-saytga ega bo‘lishi.

11. O‘zboshimchalik bilan qurilgan qurilmalarni o‘rganish boshlanadi.

- Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyalari hokimliklar bilan birgalikda:
- Respublikaning seysmik faol zonasida joylashgan seysmik xavfsizligi III-IV toifaga kiruvchi ko‘p kvartirali uylardagi umumiy foydalaniladigan joylarda (zinapoya yo‘laklari, chordoq va umumiy foydalanishdagi oshxonalarda) o‘zboshimchalik bilan qurilgan konstruksiyalarni;
- ko‘p kvartirali uylarning, shu jumladan, ularning yerto‘la va birinchi qavatidagi zilzilabardoshlikka ta’sir qiluvchi konstruksiyalarga o‘zboshimchalik bilan kiritilgan o‘zgartirishlarni aniqlab boradi.

**12. Banklar ustav kapitalining eng kam miqdori oshirilmoqda. Bank ustav kapitalining eng kam miqdori:**

- 2023-yil 1-sentabrdan e’tiboran 200 milliard so‘mni;
- 2024-yil 1-apreldan e’tiboran 350 milliard so‘mni;
- 2025-yil 1-yanvardan e’tiboran 500 milliard so‘mni tashkil etishi kerak.

13. Tamaki va pivo savdosi sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillari soddalashtirilmoqda. Tamaki mahsulotining ulgurji va chakana savdosi, pivo mahsulotining ulgurji savdosini xabardor qilish tartibida amalga oshirishga ruxsat berildi.

14. Investitsiya majburiyatlari bo‘yicha talablar soddalashtirilmoqda.

Ko‘chmas mulk ob’ektlari va davlat ulushlari xususiylashtirilganligi to‘g‘risidagi davlat namunasidagi order va sertifikat Davlat xizmatlari markazlari va (yoki) YaIDXP orqali QR-kod qo‘yilgan holda beriladi.

- Onlayn auksion savdolarida davlat mulki ob’ektlarini sotib olgan xaridorlar bilan shartnomalar savdo natijasi bo‘yicha bayonnoma asosida “E-auksion” elektron savdo platformasida elektron shaklda (shu jumladan, ERIsi orqali) rasmiylashtiriladi;
- Har chorakda tegishli vazirlik va idoralar xodimlarining joyiga chiqqan holda investitsiya majburiyatlarining bajarilishini oraliq monitoring qilish tartibi bekor qilinadi.

15. Sudlanganlik muddati o‘tgani haqida ma’lumot – onlayn tarzda shakllantiriladi.

- Sudlanganlik muddatining o‘tib ketganligi yoki sudlanganlikning olib tashlanishi haqidagi ma’lumotlar Ichki ishlar vazirligining “Tezkor ma’lumotlar” yagona axborot tizimida avtomatik ravishda onlayn shakllantiriladi;
- Sudlanganlik muddatining o‘tib ketganligi yoki sudlanganlikning olib tashlanganligi haqidagi ma’lumotnoma sudlanganlik muddati tugagan yoki sudlanganlik olib tashlangan sananing ertasidan kechiktirmasdan tegishli shaxsning Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidagi shaxsiy kabinetiga avtomatik ravishda bepul yuboriladi.

16. Nogironligi bo‘lgan shaxslardan tibbiy xulosa talab qilinmaydi. Nogironligi bo‘lgan shaxslarni protez-ortopediya moslamalari va reabilitatsiya qilishning texnik vositalari bilan ta’minlashda nogironligi bo‘lgan shaxslardan tibbiy xulosa talab qilish bekor qilinadi. Tibbiy xulosa tibbiy-ijtimoiy ekspert komissiyalari tomonidan “Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza” elektron axborot tizimiga kiritiladi.

17. IIV xodimlari muntazam malaka oshirishadi. Huquqbuzarliklar profilaktikasi, yo‘l-patrul va patrul-post xizmati bo‘linmalari xodimlari ushbu sohalarda xizmatni davom ettirishlari uchun har uch yilda IIV Malaka oshirish institutida malaka oshirishlari lozim bo‘ladi.

18. Ichki audit xizmati xodimlariga talablar kuchaytirilmoqda. Ichki audit xizmati xodimining malakasi ichki audit milliy malaka sertifikati orqali tasdiqlanadi.

Ichki audit bo‘yicha milliy malaka sertifikatiga ega bo‘lmagan shaxslarni Inspeksiya va ichki audit xizmatlarining xodimi lavozimiga ishga qabul qilishga hamda ularning ushbu tizimlarda faoliyat yuritishiga yo‘l qo‘yilmaydi, bundan xalqaro sertifikatga ega bo‘lgan shaxslar mustasno.

19. Qishloq xo‘jaligi ilm bilan bog‘lanadi. Oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlik, ilm-fan yutuqlari, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, inson resurslarini rivojlantirish masalalari yangi tashkil etiladigan agroklasterlar, kooperativlar va sohadagi boshqa yirik korxonalar faoliyatini tashkil etishda litsenziya va ruxsat etish tartib-taomillari shartlaridan biri etib belgilanadi.

20. Ekologiya vazirligining stipendiyasi joriy etilmoqda. Oliy ta’lim muassasalarining “Ekologiya”, “Atrof-muhitni muhofaza qilish”, “O‘rmonchilik”, “Yashil iqtisodiyot” va “Gidrometeorologiya” va boshqa talab yuqori bo‘lgan yo‘nalishlaridagi eng iqtidorli talabalari uchun Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vaziri stipendiyasi ta’sis etiladi.

21. Ayrim huquqbuzarliklar bo‘yicha xabar berganlik uchun – pul mukofoti. Aholi tomonidan Energetika vazirligining maxsus axborot tizimiga yuborilgan elektr, issiqlik energiyasi, gazdan foydalanish qoidalarini buzish bilan bog‘liq huquqbuzarliklar haqidagi fotosuratlar va videoyozuvlar belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi. Huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi fotosuratlar va videoyozuvlarni yuborgan shaxslar pul mukofoti bilan rag‘batlantiriladi.

22. Xususiy sektordagilar qishloq xo‘jaligi texnikalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazishlari mumkin. Xo‘jalik yuritish sub’ektlari – yuridik shaxslarga jismoniy shaxslarning 100 ot kuchigacha quvvatga ega bo‘lgan qishloq xo‘jaligi, melioratsiya va yo‘l-qurilish texnikalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish faoliyati bilan shug‘ullanish huquqi beriladi.

**Daryo.uz**

Семинар-тренинг
для девушек и женщин

# «ВО ИМЯ НОВОЙ ЖИЗНИ, ВО ИМЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА!»

**под таким девизом проводятся мероприятия, посвящённые подготовке и празднованию 32-й годовщины государственной независимости Республики Узбекистан в АО «Farg‘onaazot».**

**В целях проведения праздника независимости в духе сегодняшнего времени, на предприятии разработана программа организационно-практических и духовно-просветительских мероприятий, воплощающих в себе идею «Во имя новой жизни, во имя Нового Узбекистана!»**






В рамках которого 10 августа текущего года в актовом зале АО «Farg‘onaazot» состоялся семинар-тренинг на тему «Мы против насилия», а также была проведена интеллектуальная игра «Заковат» среди девушек и женщин.

Семинар-тренинг был организован администрацией и общественными организациями предприятия, при активном участии первичной организации Совета союза молодёжи предприятия.

На семинаре принимали участие начальник отдела Ферганского областного центра реабилитации и адаптации женщин Ахмедова Жамила, начальник отдела Ферганского областного управления Агентства по делам молодёжи Акрамова Хусния и психолог Узакова Мухаррамой, а также обладатель нагрудного знака "Республикада фаол келажак бунёдкори" Зарнигор Убайдуллаева.

